



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



ORIENTAL
UNIVERSITETI

ORIENTAL UNIVERSITETI

Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

60110300 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika)

Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60110300 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika)

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

ORIENTAL UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: SADIROVA KAMOLA GIYOZOVNA

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: ALFIRA MAKHMUTOVA

New Uzbekistan University

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260078
Xulosa raqami	928
Xulosa sanasi	25.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"ORIENTAL UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Noroztepa ko'chasi, 52-uy. Guvohnoma: MAS № 0000298, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Maxsus pedagogika (surdopedagogika)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60110300
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000298, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60110300 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60110300 – Special Pedagogy: Surdopedagogy
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60110300 – Специальная педагогика (сурдопедагогика)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	O'qituvchi-surdopedagog
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	400 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Noroztepa ko'chasi, 52-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60110300 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika) bakalavriat ta'lim yo'nalishini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturini boshqarish va muvofiqlashtirish bo'yicha mas'ul tarkibiy tuzilmalarning vakolatlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida aniq belgilangan bo'lib, ularning faoliyati o'zaro hamkorlik va uzviylik tamoyillari asosida tashkil etilgan. Ta'lim dasturining istiqbolda rivojlanishiga qaratilgan reja ishlab chiqilgan, ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari joriy etilgan hamda ta'lim sifati monitoringi muntazam amalga oshiriladi. Surdopedagogika yo'nalishi uchun maxsus ta'lim muassasalari va sohaga ixtisoslashgan tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish ta'lim dasturining amaliy yo'nalganligi va dolzarbligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60110300 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika) bakalavriat ta'lim dasturining mazmuni va tuzilmasi amaldagi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi, malaka talablari hamda oliy ta'lim sohasidagi zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturida ta'lim maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari hamda bitiruvchilarda shakllantirilishi zarur umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar aniq belgilangan bo'lib, ular o'quv rejalari va fanlar mazmuni bilan

uzviy bog'langan. Surdopedagogika yo'nalishida nazariy defektologik bilimlarni imo-
ishora tili, eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar bilan ishlash metodikalari hamda
maxsus pedagogik texnologiyalar bo'yicha amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish
kasbiy tayyorgarlikning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim dasturi yakunida
bitiruvchilarga "O'qituvchi-surdopedagog" kvalifikatsiyasi berilishi mazkur
kompetensiyalarni to'liq shakllantirishni taqozo etadi. Ta'lim dasturi mazmuni ta'lim
dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq
shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili
asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida
60110300 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika) bakalavriat ta'lim dasturi
doirasida o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash tizimi amaldagi
normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi
hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yo'lga qo'yilgani aniqlandi.
O'quv rejalari va fan dasturlari ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv
natijalari hamda bitiruvchilarda shakllantirilishi zarur kompetensiyalarga muvofiq
ishlab chiqilgan. Surdopedagogika yo'nalishida maxsus ta'lim muassasalarida tashkil
etiladigan pedagogik amaliyot kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim
tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar bilan ishlash
bo'yicha amaliy ko'nikmalar bevosita real pedagogik muhitda rivojlantiriladi. O'quv
natijalarini baholash tizimi shaffoflik, xolislik va akademik halollik tamoyillari asosida
tashkil etilgan bo'lib, o'quv jarayoni hamda baholash mexanizmlari ta'lim
dasturining maqsadlari va amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili
asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida
60110300 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika) bakalavriat ta'lim yo'nalishi
bo'yicha qabul jarayoni, qabul parametrlari, talabalar harakati hamda talabalarni
akademik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi bo'yicha zarur tashkiliy mexanizmlar
shakllantirilgani aniqlandi. Qabul mezonlari, fanlar majmuasi, baholash mezonlari,
natijalarni e'lon qilish tartibi hamda apellyatsiya mexanizmlari Vazirlar
Mahkamasining 578-son qarori, PF-81-son Farmoni va "Oriental" universitetining
ichki me'yoriy hujjatlari asosida belgilangan. Qabul jarayonida avtomatlashtirilgan

axborot tizimlaridan foydalanilishi shaffoflik, ochiqlik va xolislik tamoyillarining ta'minlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, qabul parametrlarining universitetning mavjud kadrlar salohiyati, moddiy-texnik bazasi va ta'lim resurslari bilan mutanosibli ta'minlangan. Talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60110300 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika) bakalavriat ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar, boshqaruv, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar tarkibi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda malaka talablari asosida shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturini amalga oshirishga jalb etilgan pedagog kadrlarning soni, ilmiy salohiyati, kasbiy tajribasi va mutaxassislik yo'nalishi dastur talablariga muvofiq bo'lib, ularning kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida malaka oshirish va qayta tayyorlash mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Surdopedagogika yo'nalishida professor-o'qituvchilarning maxsus ta'lim muassasalaridagi amaliy tajribaga ega bo'lishi eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar bilan ishlash bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 60110300 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika) bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza amaldagi me'yoriy talablar asosida shakllantirilgani va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini berishi aniqlandi. Ta'lim dasturi zamonaviy o'quv auditoriyalari, maxsus fan kabinetlari, multimedia vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda zarur o'quv-uslubiy resurslar bilan ta'minlangan bo'lib, fanlar bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik adabiyotlar fondi shakllantirilgan. Surdopedagogika yo'nalishi uchun eshitish apparatlari, surdotexnik vositalar, vizual didaktik materiallar hamda maxsus o'quv jihozlarining mavjudligi talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va

amaliy mashg'ulotlarni sifatli tashkil etishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Eshitish apparatlari, surdotexnik vositalar va vizual o'quv materiallari bazasini boyitish tavsiya etiladi.
- ✓ Maxsus ta'lim muassasalari bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Surdotexnik vositalar va maxsus o'quv materiallari bazasini boyitish.
- ✓ Maxsus ta'lim muassasalari bilan amaliyot bazalarini kengaytirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning maxsus ta'lim sohasidagi amaliy tajribasini oshirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Oriental universiteti" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 60110300 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika) bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi samarali shakllantirilgani, mas'ul tarkibiy tuzilmalarning vakolatlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida aniq belgilanganligi hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari joriy etilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining mazmuni va tuzilmasi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda malaka talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv rejalari va fan dasturlari bitiruvchilarda zarur umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. O'quv

jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan, qabul va talabalar faoliyatini boshqarish mexanizmlari amaldagi normativ talablar asosida yo'lga qo'yilgan. Ta'lim dasturini amalga oshirishga jalb etilgan professor-o'qituvchilar tarkibi soni, ilmiy salohiyati, kasbiy tajribasi va mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha dastur talablariga mos keladi. Universitetda maxsus fan kabinetlari, multimedia vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv-uslubiy resurslar hamda surdopedagogika yo'nalishiga xos maxsus vositalar bilan ta'minlangan moddiy-texnik baza shakllantirilgan. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturining barcha yo'nalishlari (boblari) belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 60110300 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika) bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

